

ILM-BUYUK SHARAF

Salimova Jasmina Odil qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi o'zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika va o'zbek filologiyasi yo'nalishining 3- kus sirtqi 302- guruh talabasi

Anotatsiya: *Ilmni qisqacha biz o'rgangan narsa yoki narsalarning majmuyi desak bo'laveradi. Oyoq kiyimni to'g'ri kiyishdan toquyoshning radiusini bilishgacha bo'lgan barcha narsa, undan uyog'i ham ilmdir. Kishining bilim olishi salohiyati fuqaro bo'lib ulg'ayishi, el-yurt manfati uchun xizmat qilishi va ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi hamma zamonlarda dolzarb sanalgan masalalardan hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *ilm, beshik, qabr, sayohat, olam, orzu, maqsad, tafakkur, o'lim, Jannat, do'zax, abadiy, quyosh radiusi, tabiiy fan, tajriba, qonuniyat, moddiy, ma'naviy, pul, halol, xarom, Sharq, ma'rifat.*

Kirish

Xalqimizda bir gap bor „Beshikdan to qabrgacha ilm izla”

Demak, odamzod tug'ilganidan to vafotiga qadar ilm o'rganishi kerak ekan. Ilm olish butun umr davom etadigan sayohatdek gap. Sayohatingiz davomida sizni hursand qiladigan ba'zan xafa qiladigan ko'pincha asabiylashtiradigan holatlarga duch kelasiz. Bu safarda yo'qolib qolishingiz hech gap emas!

Ammo limning afzalligi shularda ko'rinadi-ki, u ko'paygani sayin o'zingiz va atrofingizdagi olamni yaxshiroq taniy boshlaysiz. Ilmning afzalligi sizni hech narsangiz qolmaganida ham tark etmasligi, ishlatilgani sayin ko'payib borishi va albatta oldingizga qo'ygan maqsadlaringizga ertaroq yetishishingizga ko'maklashishidir.

Siz niyatingizga yetishish uchun avval orzularingizni maqsadga aylantirasiz va bu maqsadingizga yetishish borasida ma'lum bir fan doirasida ilm o'rganasiz. Hech bir inson umidsiz, biron- bir maqsadsiz yashamasa kerak bu dunyoda. Albatta, shunday deb ayta olaman. Agarda hayotdan umidsiz, maqsadsiz yashasangiz, hayotingiz judayam zerikarli bo'lib qoladi.

Misol uchun, ertangi kunining rejasi bilan yashagan inson uchun o'sha bir kunlik hayoti ham mazmunli o'tadi. Mana shu bir kunlik umrini mazmunli o'tkazish uchun ham insonda bilim, ilm, g'oya bo'lishi darkor. Shu tariqa, insonning ilmi oshib boraveradi.

Odamzod ilmni o'rganish esa kishining tafakkuri narsa va hodisotlarga kuchi yetganicha aniqlik kiritishdir. Ilmni odam bolasi yaratilgandan boshlab to'xtovsiz ravishda o'rganadi. Hatto o'lim ham insonni o'rganishdan to'xtatib qo'ya olmas ekan. Negaki, Jannat va do'zax hayotida ham o'rganish jarayoni to'xtovsiz va abadiy davom etarkan.

Ilmni qisqacha biz o'rgangan narsa yoki narsalarning majmuyi desak bo'laveradi. Oyoq kiyimni to'g'ri kiyishdan to quyoshning radiusini bilishgacha bo'lgan barcha narsa, undan uyog'i ham ilmdir.

Biz o'rgangan ilm qanchalik to'g'ri? degan savolga to'xtalib o'tsak.

Bizga yoshligimizda o'rgatilgan yoki o'zimiz ixlos qo'ygan ustozlarimiz aytgan juda ko'p narsalarni ishonch bilan to'g'ri va haq deb bilamiz. Aslida esa har doim ham bunday bo'lmasligi mumkin. Gapning isboti o'laroq so'nggi 20 yilda tabiiy fanlar sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni misol qilib keltirishim mumkin. Shu kunlargacha insoniyat bu sohalarda anchagina yanglish tushunchalar bilan yashab kelayotgani aniqlandi va hozirda ham fanda kamchiliklar yo'q emas. Shuningdek olimlar o'z tajribalari orqali ilmiy isbotlab bergan narsalarni qonuniyat tarzida qabul qilib biz o'zimizdagi ilmni boyitib boramiz

Ilm zararmi? Bu savolga bir vaqtning o'zida ha va yo'q deb javob bersa bo'laveradi. Zararning foydadan farqi, u odamzodning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini sabaliroq qondirish uchun xizmat qilmaydi hamda mavjud muvozanatlarni buzib tashlaydi. Ushbu xulosadan kelib chiqib ayta olamiz-ki, zararli ilm insonga moddiy va ma'naviy jihatdan nafsiz bo'lgan ilmdir. U behuda vaqt sovrishdir.

Ilm nima uchun kerak?

Yuqorida aytilganidek oyoq kiyimni to'g'ri kiyish ilmdir. To'g'ri nafas olishni bilish, nimalarni yeb- ichishni bilish ham ilmdir. Odam ilmsiz mavjud bo'la olmaydi. Dunyo yuzini ko'rgan odam bolasi bor ekan u so'nggi nafasigacha unga hamroh bo'ladigan ehtiyojlar bilan yashaydi. O'sha ehtiyojlarni yaxshiroq va sifatliroq qondirish uchun esa unga bir qancha vositalar kerak bo'ladi, masalar; pul. Pul deb ataladigan narsaga ega bo'lish va uni sarflash uchn hisob-kitobni bilish, foyda-zararni aniqlay olish, aqidaga ko'ra halol-xaromni tanish talab qilinadi. Bularning barchasi albatta ilmdir.

Sharqda bir hikmat bor: Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rgan emas Ilmni egallab olish esa bir san'atdir. Dunyoda qanday yovuzlik sodir bo'lgan bo'lsa, ularning hammasi nodonlik orqali kelib chiqqan . Eng zo'r halokat nodonlik, insoniylikni bitiruvchi ham nodonlikdir. Yaxshi tahsil ko'rgan va ilm nuri bilan xulqini yaxshilagan ayol har yerda izzat topadi. Ilm ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan qutqargan har bir ayol nomus, izzat, ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatolarga yo'l qo'yadi.

Qizlar tarbiyasi har bir onaning, har bir ilmi va ma'rifatli ayolning oliy maqsadla-ridan biri hamda burchi va vazifasidir. O'tmishga nazar tashlasak, onalarimiz qizlarni tarbiyalashdek go'zal va ulug' vazifalarni bajargan va ular mana shunday vazifalari bilan Jannat ayollarining eng afzali deyilganini bilamiz. Xadicha, Osiyo, Fotima va Maryam (roziyollohu anho) onalarimiz hamda Uvaysiy, Nodirabegim, Bibixonimday onalarimizning ayol-qizlarimizni tarbiyalashdagi buyuk ishlari, sabr-qanoatlari biz uchun katta o'rnamdir. Farzand dunyoga kelar ekan, bolaligidan go'zal tarbiya qilib, katta qilish onalarning burchidir. Ayol zoti go'zal bir hilqatki, birgina gul ayolni rozi qilsa, birgina so'z uni halok qiladi. O'ylab qarasak, qiz bola go'dakligidanoq otasiga jannatdan bir eshik ochadi. Katta bo'lganda esa erining iymonini to'ldiradi, ona bo'lganda esa Jannat uning oyoqlari ostida bo'ladi.

Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo salolohu alayhisalomning to'rtta qizlari bo'lib, ularni tarbiya qilib bizlarga o'rnam bo'lgan zotdir. Masalan: Fotima roziyollohu anho onamizdek

g'ayratli, shijoatli, hayoli, odobi va sabr-qanoatlari biz uchun o'rnamdir. Hadislarni o'rganishdagi harakatlari bois sahobalar u kishini "Otasining qizi" deb chaqirishlari bizni to'lqinlantiradi. Shuning uchun o'tmishdan o'tgan buyuk onalarimiz kabi qizlarimizni tarbiya qilaylik, siyrat kitoblarni o'qib hayotimizga tatbiq qilayik. Chunki bir qizni tarbiya qilsak, millatni tarbiya qilgan bo'lamiz. Shunday ekan, ilm martabasi martabalarning zo'ridir, degan gap shubhasiz to'g'ri. Qaysi yerda ilm-u ma'rifat kuchli bo'lsa, o'sha yer baxt maskani hisoblanadi. Qaysi yerda nodonlik mavjud bo'lsa, u yer quruq yoki toshloq joy kabi. Go'zal xulq bilan payvasta bo'lgan ilm odamlarni baxtiyor qiladi, martabasini balandlatadi. Ilmdan maqsad ko'rkam va ezgu ishlarni amalga oshirishdir.

Ilm – eng fazilatli amaldir, chunki u ikki dunyo saodatining kalitidir. Inson ilm va ma'rifat bilangina chinakam hayotdir. Insonning hayotini to'g'ri yo'lga solmagan, uning fe'l – atvorida, amalida ta'siri bilinmagan, to'g'ri yo'lga yetaklamagan ilmda yaxshilik, xayr-baraka yo'qdir. Shuning uchun o'rganilgan emas, amal qilingan ilm haqiqiy ilm sanaladi. O'qigan, bilganiga amal qililmagan odam bu ilmning hammoli bo'ladi, xolos. Ilm insonlarga dunyo va oxiratda eng to'g'ri yo'l ko'rsatuvchidir. U tolibi ilmni saxiy, kamtarin, jur'atli, shikastadil, iffatli bo'lish baxtiga erishtiradi. Baxillik, qizg'onchilik, qo'rqqoq va jur'atsizlik, manmanlik, isrofgarchilik kabi yomon axloqlardan o'zini saqlab, kishilar ko'rganlarida suhbatiga oshiqadigan go'zal xulq egasi bo'lib kamol topishiga sabab bo'ladi. Ilm insonga nima foyda-yu, nima zarar ekanini bildiradi. Inson orzu-maqсадlariga ilm orqali yetishadi. Kishining bilim olishi, salohiyatli fuqaro bo'lib ulg'ayishi, el-yurt manfaati uchun xizmat qilishi va ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi hamma zamonlarda dolzarb sanalgan masalalardan hisoblanadi.

Qaysiki bir jamiyat ilm yo'lidan borib, uning vositalarini to'g'ri tanlagan holda taraqqiyotini qurgan bo'lsa, yuksak cho'qqilarga erishgan. Bunga zamonaviy dunyo guvohdir.